

AYLANA IGNADONLI TRIKOTAJ MASHINALARI IMKONIYATLARI

K. Z. Yunusov,
Ilmiy rahbar t.f.n. dots.

E.N. Juraqulov,
Doktorant

B. Y. Qoraboyev,
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya

Aylana ignadonli trikotaj mashinalari trikotaj sanoatida ish unumdorligi yuqori hisoblanadi. Hozirgi vaqtda mashhur mashinasozlik kompaniyalari yuqori samarali ishlab chiqarish tezligi va ishlab chiqarilgan matolarda maxsus xususiyatlarni yaratish qobiliyatiga ega bo'lgan zamonaviy aylana ignadonli mashinalarni ishlab chiqarmoqda. Mazkur trikotaj mashinalari turli xil iplardan trikotaj matolarini ishlab chiqarish imkoniyatiga ega.

Кругловязальные машины высокопроизводительны в трикотажной промышленности. В настоящее время известные инженеринговые компании производят высокоэффективные производственные мощности и придают изготавливаемым тканям особые свойства. Эти вязальные машины производят трикотаж из различных нитей.

Circular knitting technologies are the most productive methods in the knitting industry. Recently, renowned machinery companies have been developing modern circular knitting machines with a high efficiency production rate and the ability to create special properties in the produced fabrics. Seamless, ultrafine gauge and pile or sliver fabrics are suitable linings for conventional knitted fabrics.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60 sonli Farmoni, jumladan "... Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish maqsad qililib, bunda to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish .." vazifasi belgilab berilgan [1].



Aylana ignadonli trikotaj mashinalari kiyimbop va texnik trikotaj matolarni yuqori tezlikda va sifatli ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lgandan so'ng, to'qimachilikda trikotaj sanoati maxsus matolar ishlab chiqarishda yetakchilik qiladi, bu esa avtomobilsozlik va tibbiyot sohasi uchun mo'ljallangan maxsus va sanoat trikotaj matolarini ishlab chiqarish imkonini beradi. Shu vaqtgacha aylana ignadonli trikotaj mashinalari trikotaj matolarni ommaviy ishlab chiqarish uchun loyihalashtirilgan va ishlab chiqarilgan. Aylana ignadonli trikotaj mashinalarida olingan matolarning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, bu matolarni kiyim-kechak, to'qimachilik, tibbiy va ortopedik kiyimlar, avtomobil to'qimachilik, paypoq, va boshqalarda qo'llash uchun mos keladi. Hozirda aylana ignadonli trikotaj mashinalarining rivojlanishda muhim yo'nalishlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mato sifatini yaxshilash, shuningdek, sifatli kiyim-kechak, tibbiy buyumlar, elektron kiyimlar, nozik matolar va boshqalarning yangi tendensiyalari hisoblanadi. Trikotaj sanoatidagi to'qimachilik mutaxassislari innovatsion va choksiz kiyimlar nafaqat to'qimachilikda, balki tibbiyot, elektron, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarda turli xil yo'nalishlar uchun juda mos ekanligini bilishlari kerak [2].

Shu vaqtgacha ishlab chiqarilgan aylana ignadonli trikotaj mashinalarining ko'plab turlari mavjud. Bir ignadonli trikotaj mashinalari diametri o'rtacha 30 dyum bo'lgan oddiy matolarni ishlab chiqaradigan bitta silindr ignadon bilan jihozlangan.


Bir ignadonli trikotaj mashinalarining to'qish tizimi 1.1-rasmda ko'rsatilgan.



1.1-rasm. Bir ignadonli trikotaj mashinasi.

Bir qavatli tukli trikotajning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, trikotaj chetlari ichkariga buraladi. Mahsulot silindr shaklida bo'lsa, bu muammo emas, lekin mahsulot silindr shaklida to'qilmagan bo'lsa, bichish jarayonida qiyinchiliklar paydo

bo'lishi mumkin. Terri rusumli aylana ignadonli trikotaj mashinalari ikkita ipni bitta tizimga, ya'ni bitta tukli va bitta asos xalqasini to'qish orqali tukli trikotajni ishlab chiqarishga mo'ljallangan. Keyinchalik, tuk xalaqalari pardozlash jarayonida cho'tka bilan ishlov berilib, tukli mato hosil qilinadi.



1.2-rasm. Ikki ignadonli trikotaj mashinasi.

Ikki ignadonli mashinalar (1.2-rasm) silindr ignadon ignalarga gorizontal joylashgan disk ignadoni bilan ishlab chiqarilgan. Ushbu disk ignadon ignalar tizimi bir qavatli trikotaj matolardan ikki baravar qalinroq matolarni ishlab chiqarish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60 sonli Farmoni. 2022 yil 28 yanvar.
2. D. SEMNANI Advances in circular knitting. A comprehensive handbook and practical guide third edition. Isfahan University of Technology. Woodhead publishing. 2011 y. 7-1-5. 171 p.
3. Kukin N., Solovyov A.N., Koblyakov A.I. Текстильное материаловедение. - М.: Лепромбытиздат, 1992 г, 272 с.